looking at me fiercely; I was sure he was staring into my very soul (J.Eyre. Charlotte Bronte). Men uning menga qattiq tikilayotganini ko'rdim, u go'yo mening qalbim tubini tekshirayotgandek edi. Ushbu misolda *staring* fe'li faqat qarash emas, balki chuqur va hissiyotli tikilishni ifodalaydi. Bu, ko'pincha, hayrat, shubha yoki hissiy ta'sir kuchiga ega o'tkir nigohdir. Bu fe'llarning sinonimlari: *see* uchun – *notice, perceive;* antonimlari esa – *ignore* va *miss*dir.

Xulosa va takliflar. Leksik xususiyatlarni o'rganishda har bir fe'lning sinonimik qatori kengaytiriladi, ya'ni bir xil yoki o'xshash ma'nolarni ifodalovchi boshqa fe'llar topiladi. Shuningdek, antonimik qator ham aniqlanadi–qarama-qarshi ma'nolarni ifodalovchi fe'llar ko'rsatib beriladi. O'zbek tilidagi *kuzatmoq* va ingliz tilidagi *observe* o'rtasidagi ma'no nuanslari, ularning foydalanish hollari va kontekstdagi farqlari aniqlanadi. Shu tariqa, bu fe'llarning ikki til doirasidagi semantik tizimi va bir-biriga tarjima qili-nishi, ekvivalentliklar haqida xulosalar chiqariladi [2].

Grammatik shakllar va so'z yasalishida fe'llarning qanday usulda yasalishi, so'z turkumlari doirasidagi konversiyalar va yasalish modellari bilan bog'liq grammatik o'zgarishlar ko'rib chiqiladi.

O'zbek va ingliz tillarida vizual kognitiv fe'llarning grammatik shakllari va yasalishi bo'yicha ba'zi asosiy farqlar mavjud. Bu farqlar, avvalo, har bir tilning grammatik tizimi va so'z yasalishi usullari bilan bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Абдуазизов А. О составных частях когнитивной лингвистики. "Хорижий филология", 2007, № 3.

(2).Ашурова Д.У. Развитие когнитивной лингвистики в Узбекистане. "Хорижий филология",2016, № 3.

(3). Беляевская Е.Г. Когнитивные основания изучения семантики слова. Структуры представления знаний в языке. М., 1994, с. 89.

(4). Кубрякова Е.С. Начальные этапы становления когнитивизма; лингвистика – психология – когнитивная наука. "Вопросы языкознания", М., 1994, № 4, с. 37.

(5). Кузнецов А.М. Когнитология, «антропоцентризм», «языковая картина мира» и проблемы исследования лексической семантики. Этнокультурная специфика речевой деятельности. М., ИНИОН РАН, 2000, с. 9.

(6). Проскурин Е.Г. Когнитивная лакунарность текста как проблема межкультурной коммуникации. Диссертация на соис. ученой степени канд. филол. наук, Барнаул, 2004, с. 47.

(7). Расулов Р. Ўзбек тили феълларининг маъно тузилиши. 2-нашри, Тошкент, 2008, 65-бет.

(8). Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Жиззах, "Сангзор", 2006, 91-бет.

Shomuratova Intizor Bekchan qizi (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti 2-bosqich doktaranti; email intizor.sh@urdu.uz)

XOS SO'ZLAR LAKUNAMI?

Annotatsiya. *Tilshunoslik fanida turli xalqlarning turmush tarzi, urf-odatlari hamda an'anaviy qadriyatlarini aks ettiruvchi lingvistik birliklarning tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, etnografizm, dialektizm, lakuna va realiya kabi tushunchalar xalq mentalitetini o'zida mujassam qiluvchi leksik birliklardir. Ushbu maqolada mazkur birliklarning mazmuni, ularning adabiyot, tarjimashunoslik va tilshunoslikdagi o'rni, dolzarbligi hamda nazariy tahlili yoritiladi.*

КУЛЬТУРНО-СПЕЦИФИЧЕСКАЯ ЛЕКСИКА-ЛАКУНА?

Аннотация. В лингвистике важное значение имеет анализ языковых единиц, отражающих образ жизни, обычаи и традиционные ценности различных народов. Особенно такие понятия, как этнографизмы, диалектизмы, лакуны *и* реалии, *представляют собой лексические единицы, в которых воплощается менталитет народа и его культурная идентичность. В данной статье рассматриваются сущность этих единиц, их актуальность, а также теоретический анализ в контексте литературы, переводоведения и лингвистики.*

Ключевые слова: *культурно-специфическая лексика, лакуна, реалия, этнографизм, диалектизм, менталитет, эквивалентность.*

ARE CULTURE-SPECIFIC WORDS LACUNAE?

Annotation. *In linguistics, the analysis of linguistic units that reflect the lifestyle, customs, and traditional values of different nations holds significant importance. In particular, such concepts as* ethnographisms, dialectisms, lacunae, *and* realia *represent lexical units that embody the national mentality and cultural identity of a people. This article explores the semantic essence of these units, their relevance, and their theoretical analysis within the fields of literature, translation studies, and general linguistics.*

Keywords: *culturally specific vocabulary, lacuna, realia, ethnographism, dialectism, mentality, equivalence.*

Kirish. Til – millat koʻzgusidir. Ya'ni, til bu jamiyatning biron millatning milliy oʻzligini, tarixini, taraqqiyot yoʻlini, shu til oid boʻlgan xalqning madaniy merosini va jamiyki oʻziga xosliklarini ifodalovchi eng muhim omil hisoblanadi. Azaldan millatlarning turmush tarzi, an'ana-hayotiy qadriyatlari va urf-odatlarini oʻzida mujassam qilgan lisoniy tushunchalarga boʻlgan qiziqish insoniyat taraqqiyoting ilk bosqichlaridayoq mavjud boʻlgan. Tarjima ikki millat orasida koʻprik vazidasini oʻtaydi, chunki turli elatlarning adabiy merosidan tarjima orqali boshqa xalqlar bahramand boʻlganlar. Tarjimaning tarixiy ildizlari Rimga borib taqaladi, yunonlarning buyuk shoiri Homer qalamiga mansub "Odissey" va "Illiada" dostonlari rimliklar tomonidan yuqori baholangan va ularning madaniyatida yunon miflarining roli kattaligini bilgan holda, lotin tiliga tarjima qilganlar. Qadim yunonlar yaratgan madaniy merosdan bahramand boʻlish hissi rimliklardan soʻng asta-sekin Sharqda ham keng tarqaldi[1]. Miloddan avvalgi III-II asrlarda boshlangan tarjima ishlari bugungi kunda ham oʻz dolzarbligini, ahamiyatini yoʻqotgan emas. Tarjima jarayonida yuzaga chiqadigan ayrim soʻzlar mavjudki, ular tarjimondan alohida yuqori saviya va chuqur bilim talab qiladi. Millatning oʻziga xos urf-odatlari, mentaliteti, steriotiplari ularning badiiy asarlarida – adabiyotida oʻz aksini topadi. Badiiy asarlarni tarjima qilishda tarjimon duch keladigan "culture-specific" (madaniaytga xos, madaniyatni ifodalovchi) soʻzlar odatda, oʻgirish jarayonida birmuncha qiyinchiliklarga va tarjimada soʻz tanlash borasida ikkilanishlarga sabab boʻladi. Bunday lisoniy birliklar turli xil boʻlib, bir nechta guruhlarga ajralgan holda tilshunoslar tomonidan tadbiq qilinadi. Ushbu maqolada biz xos soʻzlar, etnografizm, lakuna, realiya va dialektizm tushunchalariga izohlar berib, ularning oʻxshash va farqli jihatlarini ochib berishni maqsad qilganmiz.

Adabiyotlar tahlili. Asliyat matnidagi madaniy birliklarni tarjimada saqlash muammolari koʻplab xalqaro va mahalliy tarjimashunoslar tomonidan chuqur oʻrganilgan. Bu sohada P. Nyumark, B. Nedergaard-Larsen, H. Vermeer, Ch. Nord, J.F. Ayksela, M. Loponen, R. Leppihalm, D. Katan, J. Pedersen, M. Beyker, C.A. Shaffer kabi olimlar turli ilmiy izlanishlar olib borib, oʻz xulosalarini ilgari surishgan[2]. Masalan, P. Nyumark "madaniy soʻzlar" atamasini joriy etib, bunday birliklarni tarjima qilishda matn turi, oʻquvchi ehtiyojlari va madaniy birlik ahamiyatiga qarab, turli strategiyalarni qoʻllash zarurligini ta'kidlaydi. Ch. Nord esa "cultureme" (kulturema) atamasini taklif qilib, bir madaniyatda mavjud, boshqa madaniyatda esa yoʻq yoki boshqacha namoyon boʻladigan birliklarni shunday ataydi.

Rus tarjimashunosligida ham realiyalar – ya'ni asliyatdagi milliy va davriy xususiyatlarga ega birliklar – tasnifi va ularni tarjima qilish usullari chuqur oʻrganilgan [3]. S. Vlaxov va S. Florin "realiyalar" atamasini ommalashtirib, ularni mahalliy tipologiya, davriy tipologiya va tematik tipologiyaga asoslab guruhlarga ajratishni taklif qilishgan. Ularning ta'rifiga koʻra, realiyalar bu – boshqa millat hayotida, madaniyatida, ijtimoiy rivojida mavjud boʻlmagan, milliy va davriy koloritni ifodalovchi birliklar boʻlib, ular koʻpincha toʻgʻridan-toʻgʻri ekvivalenti boʻlmagani uchun maxsus tarjima yondashuvlarini talab qiladi. Z.G. Proshina esa realiyalarni semantik jihatdan 4 guruhga (unikal realiya, analog, lakuna, funksional oʻxshash realiya) ajratishni taklif qilgan.

Oʻzbek tarjimashunosligida Gʻ. Salomov, N. Komilov, G. Gʻafurova, Q. Musayev, Sh. Sirojiddinov, G. Odilova, E. Ochilov, I. Gʻofurov, O. Moʻminov, N. Qambarov kabi olimlar[4] tarjima nazariyasi va amaliyoti, asliyat va tarjimaning muvofiqlik masalalari, tarjimadagi muammolar va ularning yechimlari, tarjima tanqidi sohasida muhim tadqiqotlar olib borishgan. Ular tarjimada asliyatning oʻziga xosligi va tarixiyligini saqlash, milliy koloritni yetkazish masalalariga alohida e'tibor qaratib, tarjima jarayonida madaniy birliklarning ekvivalentini topish, ba'zida esa izoh, tavsif yoki funksional analoglar orqali oʻquvchiga yetkazish zarurligini ta'kidlaydilar. Mustaqillikdan keyingi davrda ham oʻzbek tarjimashunosligida asliyatdagi milliy va tarixiy birliklarni tarjimada saqlash, ularning oʻziga xosligini ifodalash masalalari ilmiy izlanishlarda keng yoritilmoqda[5]. Bu borada tarjimonlar va olimlar milliy madaniyat, tarixiy kontekst va oʻquvchi mentalitetini hisobga olgan holda turli tarjima strategiyalarini ishlab chiqishmoqda.

---

[1] Z.Jumaniyozov. Tarjimanin nazariy va amaliy asoslari. Toshkent, 2008. Oʻquv qoʻllanma.13-b.

[2] Newmark Peter. Approaches to Translation. – Oxford: Pergamon Press, 1981. – P.95.

[3] Владимирова Н. Некоторые вопросы художественного перевода с русского на узбекский язык. – Ташкент, 1957. – С. 66–67

[4] Саломов Ғ. Таржима назарияси ва амалиёти. Тошкент, 2003. 49-б.; Таржима назарияси асослари. Тошкент, Ўқитувчи, 1983. 104- б.

[5] Жавбўриев М. Бадиий таржимада миллий характер ва тарихий давр колоритини қайта яратиш: Филол. фан номз. дисс. автореф. Ташкент, 1991. 20-б.

Tadqiqotlar metodologiyasi. Maqolada ekvivalentsiz leksikaga oid birliklarni tahlil qilishda tavsifiy usulga tayanilgan. Bundan tashqari, maqolada keltirilgan dialektizmlarni adabiy til bilan taqqoslashda qiyosiy usulga hamda realiya, lakuna va etnografizm kabi madaniy xos so‘zlarning o‘ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda, klassifikatsiya qilishda tasnifiy metodga ham murojaat qilingan.

Tahlil va natijalar: Milliy o‘ziga xoslik – adabiy asarlarda tasvirlangan xalq hayotining moddiy sharoiti, ma’naviy turmush tarzi, tabiati, o‘rmon, tog‘, dala, suv, zamin, osmon hamda afsona va cho‘pchaklari, tarixi va dini, adabiyoti va san’ati hamda boshqa maxsus narsalar haqidagi tasavvurlari, tushunchalari, atamalari tushuniladi. Kiyim kechaklar, udumlar, urf-odatlar, pul birliklari va hakozolar ham milliy xoslik komponentlari jumlasiga kiradi[1]. Muayyan xalqning milliy koloritini ifodalovchi so‘zlar tilshunoslar tomonidan realiya, lakuna, okkazional leksika va etnografizm kabi nomlar bilan atalib, o‘rganib kelinmoqda. Dastavval, realiya tushunchasiga to‘xtalsak, bu tushuncha ko‘plab G‘arb tarjimashunoslik maktabi vakillari tomonidan ilmiy o‘rganilgan bo‘lib, bunga K. Klaudi, D.Tellingler, P.Nyumark, V. Rossels, L. Barxudarov, L.Xon kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan va turlicha izohlar berilgan. Bizning fikrimizcha, realiyalar borasidagi mukammal tadqidodlar bolgar tarshimashunoslari S. Vlaxov va S.Florinlar tomonidan amalga oshirilgan: “Realiyalar — bu muayyan bir xalqning hayoti, turmushi, urf-odatlari, madaniyati, ijtimoiy taraqqiyotiga oid narsa, predmet, voqea-hodisalarni ifodalovchi so‘z va so‘z birikmalaridir. Ular boshqa tilda so‘zlashuvchi uchun notanish bo‘lib, milliy va davriy xususiyatga egadir” [2]. Masalan, *sumalak* (Navro‘z bayramiga xos maxsus taom, bug‘doydan tayyorlanadi va o‘ziga xos mazasi bilan ajralib turadi), *palov* (o‘zbek milliy taomi, guruch, sabzi va go‘shtdan tayyorlanadi), *do‘ppi* (erkaklar bosh kiyimi, milliy an’ana-ni ifodalaydi, *bo‘za* (biroz alkogolli, bug‘doy, makkajo‘xori yoki jo‘xori fermentatsiyasi orqali tayyorlan-gan ichimlik hisoblanadi), *choyxona* (an’anaviy o‘zbekona dam olish va suhbat joyi). Endi, ingliz tilidagi realiyalar misollariga to‘xtalsak, *haggis* (Shotlandiyaga xos milliy taom, qoramol ichagi, jigari va boshqa mahsu-lotlardan tayyorlanadi), *fish and chips* (ingliz milliy fast-food taomi, baliq va kartoshka qovurmasi), *pub* (ingliz madaniyatida ijtimoiy dam olish joyi, spirtli ichimliklar ichiladigan an’anaviy joy), *tea time* (ingliz madaniyatida choy ichish uchun maxsus vaqt va marosim), *Yorkshire pudding* (ingliz oshxonasining an’anaviy taomi), *Sunday roast* (yakshanba kuni oilaviy ovqatlanish uchun tayyorlanadigan go‘shtli taom). Bundan ko‘rinib turibdiki, realiyalar vaqatgina real narsalar-buyumlar, predmetlarnigina ifodalash bilan cheklanmasdan, madaniy tushunchalarni ham ifodalash xususiyatiga ega. Endi lakuna atamasiga to‘xtalsak, bu termin XX asrning ikkinchi yarimidan boshlab olimlar tomonidan chuqur o‘rganila boshlagan va ilk bor kanadalik tilshunoslar J.P.Vine va J.Darbelnelar tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan: “Bir tildagi so‘z boshqa tilda muqobilini topa olmagan o‘rinlarda har doim lakuna hodisasi yuzaga keladi”[3]. Lakuna atamasi kanadalik olimlar tomonidan fanga kiritilgan bo‘lsa ham, rus tilshunoslari bu sohada ko‘pgina tadqiqot ishlarini olib borganlar va turli olimlar tomonidan madaniy birliklar, ekvivalentsiz leksika, nol leksika kabi atamalardan ko‘ra lakuna deb atash muqobil ekanligini va lakunalarni tadbiq qiluvchi fan tarmog‘i lakunalogiyaga asos solganlar. Lakunalarga o‘zbek tilidan misollar: *ko‘pkari* (an’anaviy o‘yin, ot ustida o‘tkaziladigan sport musobaqasi), *o‘tov* (cho‘l yoki tog‘ hududida vaqtinchalik yashash uchun qurilgan uy), *chimildiq* (uy-ro‘zg‘or buyumlari, asosan, cho‘pdan yasalgan idish-ustunlar), *qish chillasi* (qishning eng sovuq davri, 40 kun davom etadi), *baharjurt* (chorvadorlarning bahor va yoz oylarida ko‘chib yurishi), *darveshona* (bahorgi ekinlar oldidan o‘tkaziladigan diniy marosim).

Etnografizmlar – kundalik turmush tarzi bilan bog‘liq, milliy an’ana va urf-odat tushunchalariga yo‘g‘rilgan predmet va tushunchalarni bildiruvchi so‘zlardir[4]. Xalqning milliy-madaniy xususiyatlarini ya’ni urf-odatlari, an’analari, turmush tarzi bilan bog‘liq barcha tushunchalar bevosita shu millat tilida o‘z ifodasini topadi. Xalq og‘zaki ijodi namunalari yoki yozuvchi va shoirlar ijodining maxsuli bo‘lgan asarlar xalq tilining badiiy ifodasi bo‘lib, o‘zida etnografik leksikani aks ettiradi. Masalan, o‘zbek to‘ylarida amalga oshiriladigan bir nechta urf-odatni ifodalovchi etnogrfizmlarga to‘xtalsak, *sovchi qo‘yish* (yigit tomonidan qiz uyiga o‘z yaqinlarini jo‘natishi), *kampir o‘ldi* (yoshi ulug‘ onaxonlardan biri chimildiq oldida o‘zini o‘lganga solib yotadi va kiyov tomonidan pul yoki sovg‘a berilgach, qayta“tiriladi”gan marosim), *beshikkerti* (turkiy xalqlarda, jumladan, o‘zbek, qirg‘iz, qozoq, turkmanlarda, shuningdek, tojik xalqida bolani beshikdaligidayoq yaqin do‘sti, qarindoshi, qo‘ni-qo‘shni yoki yaqin kishisining farzandiga

---

[1] Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. Тошкент, Ўқитувчи, 1983. 101-б.

[2] Влахов С. Флорин С. Непереводмимое в переводе. –М.: Международные отношение.1980. С. 228.

[3] Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Toshkent, TDO‘TAU, 2019. 129-b.

[4] Касимова Р.Р. Ўзбек тўй ва мотам маросим фольклори матнларининг инглизча таржимасида этнографизмларнинг берилиши: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Т., 2018. 11-б.

unashtirib qo‘yish odati)[1], *suyunchi* (biron quvonchi voqeani yetkazishda beriladigan pul yoki sovg‘a). Bundan tashqari biz adabiyot namunalarida ayrim hududlargagina xos so‘zlarga ham duch kelishimiz mumkin. Dialektizmlar esa adabiy tilga kirib kelmagan, faqat ma’lum bir hududdagina ishlatiladigan so‘zlarni ifodalaydi. Dialektizmlar etnografik leksikaning bir qismidir, ammo bir narsani unutmaslik lozimki, hamma dialektizmlar ham etnografizm bo‘lmasligi mumkin, shunki ayrimlari adabiy tilda mavjud so‘zning boshqacha atalishi xolos. Dialektzmlarning etnografik leksika deb atalashi uchun yoki shu guruhga mansub bo‘lishi uchun so‘zning yoki so‘z birikmasining ekvivalenti adabiy tilda uchramasligi lozim. Masalan, Farg‘ona shevasida *“shoti”* adabiy tildagi *“narvon”* so‘zining, Buxoro shevadagi *“bacha”* esa adabiy tildagi *“bola”* so‘zining dialektga xos ko‘rinishidir. ko‘rinishidir. Xorazm shevasida mavjud *“manatli taxya”* tangalar bilan bezatilgan ayollar bosh kiyimini anglatuvchi so‘z bo‘lib, adabiy tilda uchramaydi. Bunga yana bir qancha misollar keltirish mumkin: *jelak* (yengsiz, yupka kiyim), *baycha* (Qashqadaryo va Surxondaryo shevalarida xotin-qizlarga murojaat qilish uchun ishlatiladigan so‘z), yana shu hududlarga xos dialektizm *kal dala* (o‘simlik o‘smaydigan dala), *sungak olishig‘* (quda tarafga qiz berish yoki olish) Xorazm shevasiga xos dialektizm.

Xulosa: Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, etnografizm, dialektizm, lakuna va realiya kabi lingvistik birliklar tilshunoslik fanida alohida ahamiyatga ega. Turli olimlar ularni har xil nomlar bilan atagan bo‘lsalar-da, aslida xos so‘zlar ya’ni realiya, lakuna, etnografizm, dialektizm (adabiy tilda ekvivalenti yo‘q bo‘lsa) kabi tushunchalarning barchasi milliy koloritni ifodalovchi xos so‘zlar hisoblanadi. Ularni turli mamlakat tilshunoslari har xil davrlarda o‘rganib, har xil nomlagan bo‘lsa-da ular ayni tushunchani ifodalaydi. Lakuna va realiyalar asosan tarjima jarayonida ya’ni ikki til doirasida yuzaga kelsa, dialektizmlar adabiy til va uning shevalari orasidagi farqlar tufayli yuzga keladi. Xos so‘zlarning o‘rganilishi nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham muhimdir. Tarjima jarayonida milliy-madaniy tafovutlarni to‘g‘ri yetkazish, tillararo muloqotni rivojlantirish va xalq madaniyatini o‘rganishda ushbu tushunchalar muhim rol o‘ynaydi. Kelgusida ushbu lingvistik birliklarning psixolingvistik, ijtimoiy lingvistik va tarjima nazariyasi nuqtayi nazaridan yanada chuqurroq o‘rganilishi lozim. Milliylikni ifodalovchi so‘zlarni o‘rganish, ularni tilshunoslik, madaniyatshunoslik va tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, sun’iy intellekt va mashina tarjimasi sohalarida ham bu birliklarning qanday ifodalanishi masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ushbu tadqiqot yo‘nalishlarida qo‘shimcha izlanishlar olib borish zamon talabiga aylanib bormoqda.

Qurbonova E’zoza Shuhrat qizi (Toshkent Amaliy fanlar universiteti dotsenti v.b., GulDU doktoranti, PhD; ezozasabirova118@gmail.com)

YURIDIK TERMINOLOGIYAGA OID TADQIQOTLARDA QO‘LLANILGAN METODLAR TAHLILI

Annotatsiya. *Maqolada yurisprudensiyaga oid terminologik birliklar tahlili aks etgan tadqiqotlar tahlilga tortilgan. Mazkur tadqiqotlarda terminologik birliklarning xususiyatlarini yoritish uchun qo‘llanilgan tadqiq metodlari yuzasidan tahliliy mulohaza yuritiladi. Mavjud ilmiy ishlarda qo‘llangan metodlar tavsifi bayon etilishi orqali yuridik terminologiyaning shu kunga qadar qaysi jihatdan o‘rganilganligi borasida xulosalar taqdim etiladi.*

Kalit so‘zlar: *yuridik terminologiya, metod, huquqshunoslik, huquq normasi, sistem yondashuv metodi, qiyosiy metod, tarixiy-sotsiologik metod, analiz va sintez, tarixiy metod.*

АНАЛИЗ МЕТОДОВ, ПРИМЕНЯЕМЫХ В ИССЛЕДОВАНИЯХ ЮРИДИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

Аннотация. *В статье анализируются исследования, посвященные анализу терминологических единиц, связанных с юриспруденцией. В этих исследованиях представлен аналитический обзор методов исследования, используемых для выяснения характеристик терминологических единиц. Описывая методы, используемые в существующих научных работах, представлены выводы по изученным к настоящему времени аспектам юридической терминологии.*

Ключевые слова: *юридическая терминология, метод, юриспруденция, правовая норма, метод системного подхода, сравнительный метод, историко-социологический метод, анализ и синтез, исторический метод.*

[1] https://etnotravel.uz/maqola/suyunchi.2025-yil,30-may,19:06.